

**ODIL YOQUBOVNING ULUG'BEK XAZINASI ROMANINI INGLIZ
TILIGA TARJIMA QILISHDAGI LEKSIKOLOGIK VA SINTAKTIK
MUAMMOLAR MAVZUSIDA**

Farg'ona davlat universiteti

Ingliz tili va adabiyoti fakulteti

Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Maxmudova Gulnavoz Ikromjon qizining

Ingliz tili va adabiyoti fani o'qituvchisi Gafurova Nozima

bilan tayyorlagan maqolasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola o'zbek adabiyoti durdonalaridan biri Odil Yoqubov qalamiga mansub — “Ulug'bek Xazinasi” (ULUGBEK'S TREASURE) o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilishdagi lingvistik va grammatik transformatsiyalar tahlilini muhokama qiladi.

Kalit so'zlar: tarjima, badiiy tarjima, orfografik transformatsiya, leksikologik transformatsiya, morfologik transformatsiya, sintaktik transformatsiya.

ABSTRACT

This article discusses the analysis of linguistic and grammatical transformations in the translation from Uzbek to English of "Ulugbek's Treasure" by one of the masterpieces of Uzbek literature, Odil Yaqubov.

Keywords: translation, artistic translation, orthographic transformation, lexicological transformation, morphological transformation, syntactic transformation.

KIRISH

Tilshunoslik, lingvistika — til haqidagi, uning ijtimoiy tabiati, vazifasi, ichki tuzilishi, tasnifi, muayyan tillarning amal qilish (faoliyat) qonunlari, tarixiy taraqqiyoti haqidagi fan. Maqsadi, vazifasi va shu kabiga ko'ra, Tilshunoslikning bir necha Yo'nalishlari (sohalari) bor: umumiy Tilshunos — tilni umuman insonga xos hodisa sifatida o'rganuvchi, asosiy vazifasi dunyo tillariga xos eng umumiy belgi xususiyatlarni aniqlash va yoritish bo'lgan soha, xususiyl Tilshunos — ayrim bir til belgixususiyatlarini o'rganuvchi soha; amaliyl Tilshunos — tildan foydalanish bilan aloqador amaliyl masalalarni (eksperimental fonetika, leksikografiya, lingvostatistika, transkripsiya, transliteratsiya va boshqalar) hal qilish metodlarini ishlab chiquvchi yo'nalish; matematik lingvistika, strukturaviyl tilshunoslik, siyosiy-tarixiy tilshunoslik va boshqa Paralingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika kabi sohalar so'zlovchi (shaxs)ning jamiyatdagi faoliyati bilan aloqador til xususiyatlarini o'rganadi.

Odil Yoqubov — o‘zbek sovet adabiyotining yirik vakili, 1926- yili Qozog‘istonning Turkiston tumanidagi Qarnoq qishlog‘ida ziyoli oilada tug‘ilgan. Ikkinchi jahon urushi boshlangach, urushda qatnashish uchun yoshini katta ko‘rsatib, Yaponiya frontiga jo‘nagan. 1945-yildan 1950-yilgacha haqiqiy harbiy xizmatda bo‘ldi. 1951–1956-yillar mobaynida O‘rta Osiyo Davlat Universiteti (hozirgi Milliy universitet)da ta‘lim olgan. Literaturnaya gazetasining O‘zbekiston bo‘yicha muxbiri, O‘zbekiston yozuvchilari uyushmasi raisi gazetasi bosh muharriri va boshqa mas‘ul vazifalarda ishlagan. Yoqubov 1985-yil O‘zbekiston xalq yozuvchisi ordeni bilan taqdirlangan.

Dastlabki asari – “Tengdoshlar”— qissasi 1951 yilda e‘lon qilingan. “Dastlabki qadam”— (1953), “Ikki muhabbat”— (1955) hikoyalar to‘plami, “Tilla uzuk”— (1961) qissa va hikoyalar to‘plamida muhabbatni insonga xos ulug‘, muqaddas hislat sifatida tasvirlaydi.

O.Yoqubovning — “Er boshiga ish tushsa”, “Ulug‘bek xazinasi”, “Diyonat”, “Adolat manzili” asarlari o‘zbek adabiyotida psixologik roman maydonga kelishiga zamin bo‘ldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

“Ulug‘bek xazinasi ” romanida esa Mirzo Ulug‘bekning umrini so‘ngi damlaridagi tarixiy ziddiyatlar ifodalangan. Romanda Ali Qushchining hayoti, ijodi, amalga oshirayotgan ishlarining Mirzo Ulug‘bek hayoti bilan bog‘liqligi haqidagi talqinlar haqida so‘z yuritiladi.

Roman sujetidan o‘rin olgan voqealar silsilasida Mirzo Ulug‘bek va o‘z farzandi Abdulatif o‘rtasidagi ziddiyatlardan istirob chekkan shaxs qismati, farzandining taxt uchun o‘z otasiga qarshi kurash boshlashi, bundan ruhlangan ba‘zi saroy amaldorlarining xiyonatlari tarixiy haqiqat nuqtai nazaridan talqin etilganligiga jiddiy e‘tibor qaratilgan.

Ayniqsa, ana shunday murakkab tarixiy sharoitda shogirdi Ali Qushchining ustoz Mirzo Ulug‘bekka bo‘lgan ishonchi va sadoqati, farzandi Abdulatif xiyonat qilib turgan bir vaqtda uning ustoziga munosabatini o‘zgarmaganligi, aksincha, hayotini xavf ostiga qo‘yib, saroydagi yillar davomida yaratilgan asarlarni saqlash uchun qilgan harakatlari yorqin lavhalarda talqin etilganligi, bu esa tarixiy haqiqatning badiiy ifodasi ekanligini alohida ta‘kidlaydi.

MUHOKAMA

“ Ulug‘bek xazinasi ” gapda leksik transformatsiya usuliga kiruvchi so‘z tushurib qoldirish hodisasi ro‘y bergan hisoblanadi, misol uchun asar ichidagi ushbu gapni tahlil qilishimiz mumkin:

O‘zbekcha: Nozanin harir pushtirang parda orasida bosh egib turgan bo‘lsa ham, Mirzo Ulug‘bek uning bo‘lakcha husnidan, qayrilma qoshlarning nafisligini, qirra burnining

chetidagi katta qora holi, yozilib ketib, oq shohi ko‘ylagining etagiga tushgan mayin sochlarining hayoliy go‘zaligidan lol qolgan edi.

Inglizcha: Mirzo Ulug‘bek was surprised by her beauty, the elegance of her curved eyebrows, the large black mole on the edge of her pointed nose, and the dreamy beauty of her soft hair falling to her white royal dress|| [4]

Izoh: Bu gapning tahliliga kelsak so‘z tushurib qoldirish hodisasdan foydalanilgan va ot so‘z turkumiga kiruvchi etak so‘zi tushirib qoldirilgan.

O‘zbekcha: Mirzo Ulug‘bekning ko‘z oldiga bundan bir-ikki hafta muqaddam haramda ko‘rgan yosh nozanin keldi.

Inglizcha: Mirzo Ulug‘bek remembered a young woman whom he had seen in the harem a couple of weeks ago.

Izoh: Ushbu gapda ko‘z oldiga keldi so‘z birikmasini o‘rniga soda fe‘llarga kiruvchi “remembered” sifatoshidan foydalanilgan va so‘z almashtirish hodisasiga uchratilgan.

O‘zbekcha: G‘isht qolipidan ko‘chgan edi.

Inglizcha: All incidents already happened.

Izoh: Bu gapda sematik transformatsiyadan foydalanilgan hamda to‘liqligicha o‘zgartirilgan ammo ma‘no saqlanib qolgan.

O‘zbekcha: Ammo o‘z barmog‘ingni o‘zing chopolmas ekansen, ne qilay o‘z pushti kamarimdan bo‘lgan farzandim.

Inglizcha: But you can’t cut your finger yourself, what can I do, he is my son

Izoh: Pushti kamarimdan bo‘lgan farzandim iborasi o‘rniga he is my son deb sematik transformatsiyadan foydalanib, ma‘nodoshiga almashtirilib ma‘nosi saqlab qolingan.

O‘zbekcha: Mirzo Ulug‘bekning ko‘z oldiga bundan bir-ikki hafta muqaddam haramda ko‘rgan yosh nozanin keldi.

Inglizcha: Mirzo Ulug‘bek remembered a young woman whom he had seen in the harem a couple of weeks ago.

Izoh: Ushbu gapda past perfect da tuzilgan ammo gapda ago payt ravishi bor ago past simplening payt ravishi hisoblanadi, shu sababli bu gap sintaktik transformatsiyaga misol bo‘la oladi.

XULOSA

Odil Yoqubov qalamiga mansub —Ulug‘bek xazinasil asarida tahlil jarayonida quyidagi transformatsiyalar kuzatilgan. Xususan, leksikologik, sintaktik, orfografik transformatsiyalar uchragan hisoblanib, ushbu maqolada shu transformatsiyalarga uchragan holatlar kuzatilgan.

REFERENCES

1. Odil Yoqubov. — “Ulugbek Xazinasil”. Nodirabegim nashriyoti. Toshkent – 2019, 137-bet.

2. Solijonov Juraali Kamoljnovich. (2022). *Lingua-perspective Problems and Solutions of Translating the Plant and Food Names in the "Harry Potter" books from English into Uzbek*. ASEAN Journal on Science & Technology for Development, Vol 39(No 4), 221–229. doi: 10.5281/zenodo.6607317 <https://doi.org/10.5281/zenodo.6607317>
3. Kamoljnovich, S. J. (2022). JK ROULINGNING FANTASTIK ASARLARIDAGI ANTROPONIMLARNING LINGVO-PERSPEKTIV MUAMMOLARI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(1), 334-343. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-1-334-343>
4. Kamoljonovich, S. J., & O'G, Y. N. U. B. (2022). BADIY TARJIMA UCHUN TARJIMA USULLARI TAHLILI (IAN TUHOVISKIY ASARLARI MISOLIDA). *Ta'limfidoyilari*, 18(5), 32-37.
5. Jo'ramurodova, Z., & Solijonov, J. (2022, April). JK ROULINGNING —BIDL QISSANAVIS ERTAKLARI (—THE TALES OF BEEDLE THE BARD”) ASARIDAGI ANTROPONIMLARNING O'ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLARI.